



# **Milliy til va adabiy til. Adabiy tilning ogʻzaki va yozma shakllari**



## REJA:

1

Adabiy haqida ma'lumot.

2

Adabiy til uning xususiyatlari.

3

Adabiy til shakllari.



## Baholash mezonlari

Dars davomida faol qatnashib to'g'ri javob bergan o'quvchiga **-5 ball** , savollarga to'liq javob bergan, lekin barcha topshiriqlarda faol qatnashmagan javob o'quvchiga **-4 ball** , savollarga javob berishda xatolarga yo'l qo'ygan, faol qatnashishga harakat qilgan o'quvchiga **3-ball** , o'quv qurollari bo'lmagan, savollarga javob berolmagan o'quvchiga- **2 ball**





## O'QUV MASHG'ULOTINING

## VAZIFALARI:



TIAME

- Fonetika, nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u, ularning tasnifi, haqida bilimlarini esga solish
- Morfemika, asos va qo'shimchalar, ularning turlari bo'yicha bilimlarini shakllantirish.
- So'z turkumlari, ularning leksik va grammatik xususiyatlari yuzasidan tushunchalarni tahlil qilish.





# O'QUV MASHG'ULOTINING MAQSADI:



Fonetika, morfemika, morfologiya bo'limlari yuzasidan olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash, adabiy til, uning shakllari haqidagi tushunchani shakllantirish.



TIAME

## *O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

- 1. Til va nutqning farqini ayting.**
- 2. Tovush va ovozning o'xshash va farqli tomonlarini tushuntirib bering .**
- 3. Har bir nutq organi qanday vazifa bajaradi?**
- 4. Nima uchun nutq organlari faol va nofaol deb ataladi?**
- 5. Undoshlarning hosil bo'lish o'rnini deganda nimalarni tushunasiz?**





TIAME

**Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'iy nazar barchasi uchun umumiy bo'lgan til -- adabiy til -- sanaladi.**

Umumxalq tili ma'lum bir xalqning so'zlashuv tilidir. **Adabiy til** esa ma'lum bir til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan tildir.

**Umumxalq tili** kengroq hajmda bo'lib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar, ma'lum toifa, biror ijtimoiy guruhlariga oid so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin bo'lib, til qoidasiga asoslanmaydi.

Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli **mahalliy shevalar** hisoblanadi.

**Adabiy til** har qanday tilning oliy shakli sanaladi va lug'at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat'iy me'yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.





TIAME

**Sheva** ma'lum bir hududda ishlatilib, faqat o'sha hudud aholisi tushunadigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

Sheva adabiy til bilan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi

**Fonetik**-(ya`ni tovush) Tuz-  
duz,tosh-dosh, kecha-gecha

**Leksik**(ya`ni so`z)-sabzi-  
gashir,sigir-inak,narvon-  
shoti,zangi.

**Grammatik**(ya`ni qo`shimchalar  
va gap qurilishi)kelyapti-  
kelopti,maktabga-maktaba





TIAME


- ▶ Xalq shevalarining faqat **ogʻzaki shakli** mavjud.
- ▶ **Lahja** – bir-biriga yaqin boʻlgan shevalar yigʻindisidir.
- ▶ **Dialekt** - sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.





TIAME

## Adabiy til yozma va og'zaki shakllarga ega bo'ladi.



## Adabiy tilning xususiyatlari

**Adabiy tilning** rivojlanishida badiiy asarlarning xizmati katta, chunki adabiy til me'yorlarining shakllanishida adabiyotning ta'siri kuchli bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan adabiy til bilan badiiy til bir narsa emas.

**Badiiy tilda** adabiy til bilan birgalikda turli shevalarda yoki kasb-hunarga mansub personajlar nutqi ham ishtirok etadi.

- **Adabiy tilning** og'zaki so'zlashuv ,publitsistik , rasmiy uslub singari uslublardan biri badiiy uslub sanaladi. Ko'rinadiki, badiiy uslub kengroq tushuncha bo'lib , o'z ichiga adabiy til va so'zlashuv uslubini qamrab oladi.

## Adabiy tilning yozma shakliga xos xususiyatlar:

Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til **yozma adabiy til sanaladi.**

Tovushlar vositasida og'zaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga **og'zaki adabiy til** deyiladi.

yozma shakl uchun masofa va zamonning ahamiyati yoq;

yozma shakl og'zaki shaklga qaraganda til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida joriy qilingan;

yozma shaklda orfografik va tinish belgilarga oid qonun-qoidalarga amal qilinadi.



TIAME

## Auditoriyada bajarilgan ishni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

No	Guruhlar nomi	Guruh faolligi (1 ball)	Guruh intizomi (1 ball)	Javoblarning to‘liq va aniqligi (8 ball)	Jami (10 ball)
1.	“Zakovat”				
2.	“Kamolot”				
3.	“Ijodkor”				

9-10 ball – a’lo, 7-8 ball – yaxshi, 5-6 ball – qoniqarli, 3-4 ball – qoniqarsiz, 1-2 ball – yomon.

Topshiriq “*Klaster*” usulida bajariladi.



# Uyga vazifa



TIAME

- ▶ O`z shevangizga xos so`zlashuv uslubining belgilarini adabiy til me`yorlari bilan qiyoslang va farqlarini tushuntiring.

- ▶ 171-180-betlarni o`qish



TIAME



Muvaffaqiyatga uch narsa  
kafil: yaxshi niyat qil, ishon va  
intil !!!

